

IS’HOQXON TO‘RA IBRAT G‘AZALLARIDA AN’ANAVIYLIK VA HAYOTIYLIK UYG‘UNLIGI

Sevinch ISMATULLAYEVA,
Qarshi davlat universiteti 2-kurs talabasi
E-mail: sismatullayeva152@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677350>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotida Is’hoqxon To‘ra Ibrat ijodining tutgan o‘rni ilmiy asosda yoritiladi hamda uning lirik merosida muhim o‘rin egallagan ishq motivining badiiy-estetik talqini tahlil etiladi. Shuningdek, Alisher Navoiy g‘azalivoti bilan Ibrat she‘riyatini o‘rtasidagi mushtarak jihatlar qiyosiy yondashuv asosida o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: lirika, devon, nazira, g‘azal, ishq, detal, badiiy uslub.

Аннотация. В данной статье на научной основе рассматривается место творчества Исаакхана Ибрата в узбекской классической литературе и анализируется художественно-эстетическая интерпретация мотива любви, занимающего важное место в его лирическом наследии. Кроме того, общие черты газелей Алишера Навои и поэзии Ибрата изучаются на основе сравнительного подхода.

Ключевые слова: Лирика, диван, назира, газель, любовь, деталь, художественный стиль.

Annotation. This article discusses the place of Is’hoqkhan Tura Ibrat’s work in Uzbek classical literature on a scientific basis and analyzes the artistic and aesthetic interpretation of the love motif, which occupies an important place in his lyrical heritage. Also, the common aspects between Alisher Navoi’s ghazals and Ibrat’s poetry are studied based on a comparative approach.

Key words: lyric, diman, nazira, ghazal, love, detail, artistic style.

O‘zbek mumtoz adabiyotida Is’hoqxon To‘ra Ibrat ijodiyoti o‘zining rang-barangligi hamda mavzu ko‘lami jihatidan alohida ajralib turadi. Shoirning kattagina hajmga ega bo‘lgan lirik merosi uning ijod yo‘nalishi, maslagi, dunyoqarashi va she‘riyatining badiiy qiymatini to‘la ifodalaydi. Ibrat iste’dodli shoir sifatida o‘zbek, fors va arab tillarida erkin va mukammal ijod qilgan, she‘rlarini jamlab devon tartib bergan. Uning ilk devoni zamondosh shoirlar tomonidan alohida e’tirof etilib, muallif “sohibi devon” sifatida ta’riflangan. Mazkur devon bizgacha yetib kelmagan bo‘lsa-da, shoirning ko‘plab she‘rlari turli matbuotda bosilib, bayozlarga kiritilgan hamda “Ilmi Ibrat” nomi bilan o‘z matbaasida nashr etilgan.

Ibrat yoshligidanoq so‘z san’atida mohir qalam tebratgan buyuk ustozlar – Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Bobur hamda Mashrab ijodini katta qiziqish bilan chuqur o‘rgangan va ularning g‘azallariga naziralar bog‘lagan. Ayniqsa, Alisher Navoiy she‘riyatini shoir ijodiga kuchli ta’sir ko‘rsatgan. U Navoiyning nafaqat lirik merosini, balki falsafiy hamda ta’limiy-axloqiy asarlarini ham puxta o‘zlashtirgan.

Natijada, Ibrat Alisher Navoiyning “Bo‘lubtur” radifli g‘azaliga javoban radif, qofiya, vazn va baytlar sonini saqlagan holda nazira bog‘lagan:

Ishqing dilu jona jo bo‘lubdur,
Jonu dil anga fido bo‘lubdur.
San aylamasang agar davosi,
Dardim mani bedavo bo‘lubdur.

“Bo‘lubtur” radifi ostida qalamga olingan ushbu nazira Navoiy lirikasi asliyatida quyidagicha keltiriladi.

Ko‘zung ne balo qaro bo‘lubtur
Kim, jong‘a qaro balo bo‘lubtur.
Majmu‘i davoni dard qildi,
Dardingki, manga davo bo‘lubtur.

Har ikki g‘azal ham hazaji musaddasi axrabi maqbuzi mahzuf vaznida yozilgan. Biroq Navoiy she‘riyatidan o‘rin olgan ushbu g‘azal boshdan oyoq tardi aks she‘riy san‘atiga tayanadi. Navoiy g‘azalining matlasida yor ko‘zining qoraligidan oshiq ko‘ngliga (aniqrog‘i, jonga) tushgan g‘ulg‘ula haqida so‘z boradi. Birinchi misradan o‘rin olgan “ne balo” so‘zi “hayrat va taajjub uyg‘otadigan darajada” degan ma‘nolarni anglatadi. Ikkinchi baytda esa “davo” hamda “dard” so‘zlarining o‘rin almashishi yangi so‘z o‘yinlarini hosil qiladi. Ya‘ni, birinchi misrada “dard qilmoq”, “qiyinchilikka ro‘baro‘ kelmoq” ma‘nolarini anglatganda, keyingi misrada “dard” so‘zi shaklan o‘zgarishsiz holatda qo‘llanilib, ishq, o‘y kabi ma‘nolarni bildirib keladi.

Navoiy g‘azalidan farqli o‘laroq Ibrat nazirasida insoniy muhabbat, uning go‘zalligi va jafosi kuylanishi bilan bir qatorda oshiqning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy muhitdan nolish va norozilik kabi kayfiyatlari kelib qo‘shiladi.

Ohim tutuni-la ruzg‘orim
Yaldo tuniday qaro bo‘lubdur.

Bu baytda muallif “oh” so‘zi orqali butun hayotini yilning eng uzun va qorong‘u kechasi bo‘lgan Yaldoga aylanib qolganini kuchli mubolag‘a bilan tasvirlaydi.

O‘zbek mumtoz adabiyotida visol, sevgi, hijron dardi, bulbul, gul mavzulari muhim ahamiyat kasb etadi. Is‘hoqxon Ibratning ishqiy lirikasida ham ushbu mavzular yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Ushbu mavzuda ijod qilgan har bir ijodkor o‘ziga xos badiiy uslub va tasvir vositalarini ifodalaydi. Ibrat ham qalami o‘tkir shoir sifatida ushbu mavzudan chetlab o‘tolmadi va o‘zining “Sahar vaqti chaman ichra” radifli g‘azalini yaratdi va ushbu g‘azalida muhabbat, go‘zallik, hayot va inson haqidagi orzu-umidlarini kuyladi.

Bulbul sahar vaqti gulzorda qizil gulning ishq ta'sirida shu qadar sarhush bo'ladiki, hatto tikandan-tikanga qo'naverib, bag'ri gul kabi qip-qizil qonga belanganidan o'zi ham bexabar. Natijada, bu tikanlarning jabri sabab oshiq bulbul gul otashi ishqida nobud bo'ladi.

O'shal bulbul qilur afg'on, sahar vaqti chaman ichra,
Qo'nar gul deb tikan uzra, sahar vaqti chaman ichra.
Qilur bag'rini bulbul qon, tikan uzra beray deb jon,
Bo'lur gul zavqidin qurbon, sahar vaqti chaman ichra.

Shoir bu bilan cheklanib qolmaydi va chin insoniy ishqqa o'zining samimiy munosabatini yanada yorqinroq aks ettiradi. U yor visoliga yetishishni hamma narsadan ustun ko'radi, hatto, u uchun o'limga ham tayyor. Yuqoridagi misralarda “ishq” mavzusi tabiat lirikasi bilan tasvirlansa, keyingi ikki baytda shoir obrazi yetakchi o'ringa chiqadi.

Muyassar bo'lsa ul jonon, ato qilsa o'shal Subhon,
Yo'lida jon qilay qurbon, sahar vaqti chaman ichra.
Ibrato, bexabar bo'lma, yana g'aflat bilan o'lma,
Gunohi beaded qilma, sahar vaqti chaman ichra.

Ibratning ishq mavzusidagi g'azallarida insoniy his-tuyg'ular, ichki kechinmalar hamda qayg'u va iztirob tarannum etiladi. Uning lirikasida ma'shuqa afsonaviy sevgili emas, haqiqiy inson sifatida gavdalanadi va insonning barcha go'zalliklari bilan bog'lanadi. Shoirning “Ado qilasiz” radifli g'azalida ham haqiqiy insonning latofati, go'zalligi va his tuyg'ulari yuksak ifodalanadi.

Ramuz, dilbari jonon, mani ado qilasiz,
Bu telbalarni yana g'amga muftalo qilasiz.
Suchuk til bila tabassum qilib, so'rab holim,
Avvalda va'da berib, oxiri jafo qilasiz.

Ibratning ushbu g'azali o'zining soddaligi, ravon uslubi va xalq musiqalariga yaqinligi bilan ajralib turadi. Shoir ushbu g'azalda ma'shuqani ta'rif etish jarayonida uning tashqi ko'rinishini tasvirlashga alohida e'tibor beradi. Jumladan, mahbubaning atlas kamzuli, shirinsuxanligi, kamon qoshlari, o'qday kipriklari singari detallarning badiiy tasvirlanishi, g'azalining yanada ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Undagi radif (qilasiz), qofiyadosh so'zlar (ado-muftalo-jafo-imo-jazo-baho-qaro) ning g'azal vazniga mos tushishi chuqur mazmuni bo'rttirib ko'rsatish vazifasini bajaradi [1:146]. Shu boisdan bir marta o'qilishida kishi ongiga singib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, Is'hoqxon To'ra Ibrat nafaqat o'z davrining yirik ma'rifatparvari, balki Sharq mumtoz she'riyati an'alarini yuksak mahorat bilan



davom ettirgan salohiyatli sohibi devon hamdir. Uning ijodiyoti mavzu ko‘lami va badiiy rang-barangligi bilan o‘zbek adabiyoti tarixida alohida sahifani tashkil etdi. Shoir ustoz an‘analarini davom ettirgan holda she‘riyatga ijtimoiy dard va hayotiy reallikni yangicha ruhda olib kirdi. Ibratning lirik merosi o‘zida ham insoniy his-tuyg‘ularni, ham jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni badiiy aks ettirgani bilan bugungi kunda ham o‘zining qimmatini va ahamiyatini yo‘qotmagan. Uning ijodini o‘rganish ma‘naviyatimizni boyitish bilan birga, mumtoz so‘z san‘atining davomiyligini anglashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dolimov U. Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. - 180 b.
2. Is‘hoqxon To‘ra Ibrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2020. - 200 b.
3. Qosimov B., Yusupov Sh, Dolimov U, Rizayev Sh, Ahmedov S. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. -Toshkent: Ma‘naviyat, 2004. - 457 b.
4. Ro‘ziyeva N. “Is‘hoqxon to‘ra Ibrat shoir va olim, noshir va pedagog, din arbobi va tarjimon”. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences VOLUME 1 | ISSUE 11 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423.